

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA
SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
Toshkent irrigatsiya va
melioratsiya inistituti**

UDK 631.674.6 (575.1)

qo'l yozma xuquqida

ISASHOV SAIDAXROR ANVARJONOVICH

**Andijon viloyati Izboskan tumani Gulshan Axtachi fremer
xo'jaligisharoitida g'o'zani tomchilatib sug'orish rejimini ilmiy
asoslash.**

**5A650201-“Gidromelioratsiya” mutaxassisligi bo'yicha
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy raxbar
t.f.n.dots, Qosimbetova S.A**

Toshkent 2013 yil

M U N D A R I J A		
	Kirish.....	4
I bob	Qishloq xujaligi ekinlarini tomchilatib sug'orish rejimining nazariy asoslari.....	10
1	Sug'oriladigan yerlarda suvdan tejamkor foydalanuvchi g'o'za yetishtirish texnologiyasi.....	13
2	Tomchilatib sug'orishda sug'orish texnika elementlarini aniqlash.....	14
3	Tomchilatib sug'orish tizimi va elementlari.....	15
	I bob buyicha xulosa.....	24
II bob	Tadqiqot ob'ektining tabiiy, tuproq-meliorativ sharoitlari	26
1	Tadqiqot o'tkazilgan joyning geografik urni va reliefi.....	26
2	Iqlimi.....	27
3	Tuproq-meliorativ, yerning litologik tuzilishi va gidrogeologik sharoitlari.....	28
4	Quyida tajriba uchastkasini morfologik xarakteristikasini keltiramiz.....	30
	II bob bo'yicha xulosa.....	31
III bob	G'o'zani tomchilatib sug'orish rejimining asosiy parametrlarini ilmiy asoslash.....	33
1	Tadqiqot ishlarini o'tkazish uslubi va tartibi.....	33
2	Agrofizik tadqiqotlar.....	34
3	Fenologik kuzatishlar	35
4	Sug'orish texnikasini foydali ish ko'rsatishini baxolash.....	37
5	Tomchilatib sug'orish konstruksiyasi.....	38
6	Tomchilatib sug'orish tarmog'ini gidravlik xisobi.....	39
7	Tuproq katlamlaridagi namlik zaxirasi , sug'orish.....	40
8	Tomchilatib usulda sug'orish texnologiyasini g'o'zani o'sishi va rivojlanishiga ta'siri.....	45
9	Paxta tolasining texnologik va xujalik kursatkichlari tomchilatib usulda sug'orishning ta'siri.....	46
10	Paxta dalasining suv balansi.....	49
	Tomchilatib sug'orishning texnik-iqtisodiy hisobi	52
	III bob bo'yicha xulosa.....	59

	Xulosa	61
	Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozning qishloq va suv xo'jaligiga tasiri xamda uni bartaraf etish yo'llari va choralari	62
	Hayot faoliyat xavfsizligi. Hayot faoliyat xavfsizligining nazariy asoslari.....	64
	Adabiyotlar ro'yhati.....	72
	Ilovalar.....	

Kirish.

Ilmiy ishning dolzarbligi: Sug'orma dehqonchilikda har bir kubometr sug'orish suvidan samarali foydalanish asosida qishloq xo'jalik ekinlarining xosildorligini oshirish muhim vazifa xisoblanadi.

Yildan-yilga kuchayib borayotgan suv taqchilligini yumshatishda, suv resurslaridan tejab-tergab foydalanish muhim ahamiyatiga egadir. Sug'orma dehqonchilikda sug'orish usullarining eng suv tejamkor usuli tomchilatib sug'orish hisoblanadi. Tomchilatib sug'orish usuli suv resurslarini 40-60 % gacha tejash imkonini beradi, chunki bu usulda uzatilayotgan suv, ekinlar oralig'idagi barcha maydonga emas, balki xar bir tup ekin ildiz tizimining rivojlanish zonasiga beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 martdagi PK-817 son "2008-2012 yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi to'g'risida" gi qaroriga muvofiq tuproqning unumdorligini tubdan oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqildi. Asosiy tadbirlardan biri 2009-2012 yillarga mo'ljallangan tomchilatib sug'orish dasturini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish hisoblanadi.

Tomchilatib sug'orish tizimini fermer xo'jaliklarida yetishtiriladigan g'o'za, bog'-uzumzorlar, poliz va sabzavot ekinlarini sug'orishda qullash uchun xo'jalik xududining tabiiy-iqlim, tuproq meliorativ, gidrogeologik va xo'jalik-iqtisodiy sharoitlarini o'rganib, taxlil qilish zarur. Natijada har bir ekin turi uchun uning o'sib rivojlanish fazalaridagi suvga bo'lgan talabini hisobga olgan holda ilmiy asoslangan eng maqbul sug'orish rejimi tavsiya qilinadi.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Istiqbolli tomchilatib sug'orish usuli (G.Bezborodov, B.Komilov) larning ma'lumotlariga ko'ra qulay,arzon samarali xisoblanadi. Vegetatsiya mobaynida g'o'za oddiy egat orqali sug'orish usulida 5-6 marta sug'orilganda 5673 m³/ga suv sarflansa,tomchilatib sug'orish usulida 7 marta sug'orilib,mavsumiy sug'orish

me'eri $3863\text{m}^3/\text{ga}$ ni tashkil etadi. Natijada gektariga $1810\text{m}^3/\text{ga}$ (31,9%) suv tejalashga erishiladi.

SH.Raximov ma'lumotlariga ko'ra tomchilatib sug'orish usuli tejamkor usul. So'ngi yillarda jaxonning turli mamlakatlarida qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishning takomillashgan, samarali to'chilatib sug'orish usuli keng qo'llanilmoqda. Bu usul suv resurslari taqchilligi sharoitida muxim ahamiyat kasb etadi. G'o'zani tomchilatib sug'orish usulida ildiz tizimini o'ziga xos rivojlanishi yuqori bo'lmagan sug'orish me'yorlarida ildiz faol qatlamining lokalizatsiya xususiyatlari o'simlikning rivojlanishi darajasiga bog'liq ravishda tuproqning quyidagi qatlamlari xisobini belgilashni tavsiya qilishga imkon beradi:

-shonalash fazasida-----0-50 sm.

-gullash fazasida-----0-60sm.

-meva tugish fazasida-----0-70sm.

Tomchilatib sug'orish usulida g'o'za yetishtirish texnologiyasining asosiy elementini tashkil etuvchisi bo'lib o'g'itlarni darajalangan me'arlari xisoblanadi.

Tomchilatib sug'orish usuli afzalliklari S.YAzgan tajribasi natijasida olingan ma'lumotlarga ko'ra to'chilatib va jo'yak oralab sug'orish usullari sinovlari (sinov pomidorni sug'orishda qo'llanildi) ekin xosildorligi 100% ga ortdi, o'g'it 40%ga, mexnat sarfi 90%ga, suv 50%ga tejab qolindi.

Tadqiqot maqsadi, unda o'rganiladigan masalalar

Ilmiy izlanishlar maqsadi. Fargona vodiysi sharoitida g'o'zaning yangi «S-6524» va «Andijon-35» navlari uchun suvdan tejamkor, istiqbolli tomchilatib sug'orish usulini qo'llanishni o'rganish va ilmiy asoslash.

Tadqiqot vazifalari:

-o'zi bosim hosil qiluvchi tomchilatib sug'orish usuliga o'tishning maksadga muvofikligini aniqlash;

- plyonka ostiga ekilgan go'zani yangi navlarini tomchilatib sug'orishda maqbul sug'orish me'yorini aniqlash ;
- tomchilatib sug'orishda go'zani suv iste'molini aniqlash ;
- g'o'zani rivojlanishi va hosildorligiga bu usulni ta'sirini aniqlash
- bu usulni texnik-iktisodiy samaradorligini baholash;

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari

- sug'oriladigan yerlarga sarf qilingan sarmoyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotlarni olib borish usullari: TIMI, O'zPITI, MCHJ "UzGIP" va SANIIRI tavsiyanomalariga asoslangan. Ma'lumotlarni taxlil qilib qayta ishlash ishlari komp'yuterda bajarildi.

Tadqiqotlar ob'ekti: Andijon viloyati Andijon tumani "Andijon qishloq xo'jalik instituti o'quv ilmiy ishlab chiqarish xo'jaligi" fermer xo'jaligi yerlari.

Tadqiqot usullari Tomchilatib sug'orish tizimidagi bosim me'yorlarini o'rganish va maqbul bosimni aniqlash, tomchilatib sug'orish tizimi va tik zovur ish me'yorlari ko'rsatkichlarini o'zaro moslash amalga oshiriladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi:

- bu usulni qo'llashda ekish sxemasini makbul varianti aniqlandi;
- tomchilatib sug'orish texnika texnologiyasi takomillashtirildi;
- bu usul paxtani suv-ozuka tartibi, ularni o'sishi, rivojlanishi, xosil tuplashi va xosildorligiga ta'siri aniklandi;
- bu usulda xosildorlik 8-12 ts/ga ga ortishi, 2...2,5 barobar suv iktisod kilindi;
- bu usul asosida paxtani yangi navlari uchun kengaytirilgan sug'orish rejimi tuzildi;
- tik zovurdan chiqayotgan xech qaerda qo'llanilmayotgan suv bosimidan foydalanildi;
- sof foydadagi solishtirma iqtisodiy samaradorlik 1,2-1,5 barobar ortdi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.

Ilmiy ishning tadqiqot natijalari Fargona vodiysi sharoitida g'ozaning yangi «S-6524» va «Andijon-35» navlari uchun suvdan tejamkor, istiqbolli tomchilatib sug'orish usulini qo'llanishi va ilmiy asoslangan tomchilatib sug'orish tizimidagi bosim me'yorlarini o'rganish va maqbul bosimni aniqlash, tomchilatib sug'orish tizimi va tik zovur ish me'yorlari ko'rsatkichlarini o'zaro moslash yordamida tik zovur suvlaridan sug'orishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotni utkazishda TIMI, O'zPITI, MCHJ "UzGIP" va SANIIRI tavsiyanomalariga asoslanildi. Ma'lumotlarni taxlil qilib qayta ishlash ishlari komp'yuterda bajarildi. Tuproqning agrofizik xususiyatlari Toshkent viloyati, Urta CHirchik tumanidagi utloki buz tuproklar sharoitida bogzorni tomchilatib sug'orish rejimi urganildi. O'simliklarning suv, havo issiqlik va oziqlanish tartibi tuproq agrofizik xususiyatlari bilan uzviy bog'langan. Izlanishlar mobaynida tuproq agrofizik xususiyatlaridan mexanik tarkibi, hajm og'irligi, g'ovakligi, dala nam sig'imi va suv o'tkazuvchanligi aniqlanadi. Tuproqning mexanik tarkibida fizik soz zarrachalari yuqori bo'lib, tuproq qatlamida 52,32 dan 69,72 foizgacha, fizik kum zarrachalari miqdori 47,68 dan 30,28 foizgacha o'zgaradi. N.A.Kachinskiy shkalasi bo'yicha o'rta qumloq va yengil soz tuproqlarga mansubdir.

Tuproqning 70 %-ni 0,1-0,01 mm kattalikdagi zarrachalar tashkil etib, 0,6 %-ni yirik zarrachalar, 29,4 %-ni esa kichik zarrachalar tashkil etadi.

Tuproqning to'liq nam sig'imi (TNS) – tuproqning kapillyar va kapillyarsiz g'ovaklari va boshqa barcha bo'shliklari suv bilan to'yingan holdagi nam sig'imi. Tuproqning to'liq nam sig'imi uning maksimal suv sig'imini ifodalaydi.

Tuproqning kapillyar nam sig'imi (KNS) – tuproqning kapillyar oraliqlariga anchagina namni sig'dirish va bu namni aynan shu joyda saqlab tura olish xossasi. SHu o'rinda tuproqning kapillyar yo'llari orqali suvning tuproq qatlamlari quyi qismidan yuqori qismiga ko'tarilishi uning kapillyarlik suv (suv ko'tarish) xossasi deyiladi.

Tuproqning maksimal molekulyar nam sig'imi (MMNS) – bu shunday maksimal nam miqdoriki, bunda tuproq suv bilan ho'llanganda tuproq zarrachalari suvni molekulyar tortishish kuchlar bilan o'z sirtida parda tarzida ushlab turadigan suv. O'simliklar bu namni o'zlashtira olmaydi, shu sababli tuproq nam sig'imi shu darajagacha pasayganda ular quriy boshlaydi.

Tuproqdagi nam sig'im miqdori uning CHDNS 60-70 % ga tushganda tuproq kapillyar yo'llari orqali suvning harakatida uzilish vujudga keladi. Bu namlikdan boshlab o'simlikdagi o'sish sekinlashadi. Bunday holatda sug'orish zaruriyati tug'iladi. Tuproqning chegaraviy nam sig'imi. Tuproqning chegaraviy dala nam sig'imi (CHDNS) – tuproqning tabiiy sharoitida maksimal miqdordagi namni qo'yi qatlamlarga o'tkazmay, o'zida saqlab tura olish qobiliyati.

Tuproqning chegaraviy dala nam sig'imi dalaning 3 yeridan olinib, O'zPITI uslubida aniqlanadi. Tomonlari 2x2 kattalikdagi maydonga 20 sm ustunda gektariga 2000 m³ hisobidan suv bilan bo'ktirildi. Maydon suv bilan to'lg'azilgandan so'ng poliyetilen plenka bilan uning ustidan tuproq bilan yopib qo'yildi. SHundan so'ng uchinchi ukndan boshlab namlikni aniqlash uchun 10 sm qatlamdagi sizot suvlari sathigacha 3 qaytariqdan tuproq namunalari olindi. Tuproq namunalari namlik doimiy miqdorga yetguncha davom ettirildi. Namlikning doimiy ko'rsatkichi chegaraviy dala nam sig'imi deb qabul qilindi.

CHegaraviy dala namligini aniqlash uchun tajribalar boshlab vaqtida maydoncha tashqarisidan tuproq namligini aniqlash uchun tuproq namunalari olindi va namlik aniqlandi.

Tuproqning namligi haydov qatlamida (0-30 sm) tuproq og'irligining 22,4 % foizini, haydov osti (30-50 sm) 20,9 foiz, 1 metrda 20,8 foizni tashkil etadi.

Tuproqning hajmiy og'irligi. ekin urug'ini unib chiqishi, rivojlanishi va hosildorligiga tuproq zichligi kuchli ta'sir ko'rsatadi. Zichlash oshgan sari salbiy ta'siri ham shuncha ortib boradi.

Dala tajribasida tuproqda kechadigan jarayonlar shuni ko'rsatdiki tuproqning hajmiy massasining o'zgarishiga yerni ekishga tayyorlash, ekish usuli va

sug'orish texnologiyasi ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar davomida shu narsa aniqlanadiki, eng kam hajmiy og'irlik ($1,18-1,38 \text{ g/sm}^3$) jo'yakda, eng yuqori ($1,20-1,38 \text{ g/sm}^3$) hajmiy og'irlik pushtada kuzatiladi

Dissertatsiyaning tarkibi va hajmi. Dissertatsiya Kirish, 3ta boblar, xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyetlar ruyxatidan tashkil topgan.

I BOB. Kishlok xujaligi ekinlarini tomchilatib sug'orish rejimining nazariy asoslari.

Egatlab sug'orishda filtratsiyaga yo'qoladigan suv sarfini kamaytirish amaliyotda mumkin emas. Uning eng kam miqdori dalaga berilgan suv miqdorining 10-15%-dan kam miqdorgacha kamaytirish juda murakkabdir. Ma'lumki, sug'orish tizimidan (bosh kanal, xo'jaliklararo va xo'jalikichki kanallari) tashkil topgan eski takomillashmagan sug'orish tizimi uchun va dalani egatlab sug'orishda sug'orish suvidan foydalanish koeffitsiyenti 0,3...0,4 ni tashkil qiladi. Bunday holatda sug'orish tarmog'ining FIK 0,5...0,6, uning alohidagi tarmoqlarida – 0,7...0,9, dalani sug'orishda FIK – 0,5...0,6 atrofida bo'ladi. Bundan kelib chiqib suv resurslaridan foydalanish koeffitsiyentini oshirish bo'yicha tadbirlar sug'orish tizimining xamma tarmoqlari FIK-ni oshirishdan boshlanishi kerak.

Eng avvalo u o'simlik ildizi joylashgan tuproq qatlamini doimiy namlantirishni ta'minlaydi va tuproq namlik darajasini rostlab turishga imkon beradi.

O'zbekiston, Tojikiston va boshqa paxta yetishtiradigan MDX davlatlarida tomchilatib sug'orish bo'yicha o'tkazilgan ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatadiki, bu usul kam suv sarflab paxtadan yuqori hosil yetishtirishga imkon beradi, uni to'liq mexanizatsiyalash va atomatlashtirish mumkin [14].

1968-1973 yillardayoq O'zbekiston paxtachilik ilmiy-tekshirish institutining markaziy tajriba dalasida o'tkazilgan tajriba natijasi bu usulda sug'orishda hosildorlik o'rtacha 40,3 ts/ga-ni tashkil etganligini, suv iqtisodi 50%-dan oshganligini ko'rsatadi [14].

Samarqand viloyati xo'jaliklarida 1970-1982 yillarda bu usulni qo'llab, tajriba o'tkazildi va natijada xosildorlik o'rtacha 9,4 ts/ga-ga oshdi. Mavsumiy sug'orish me'yori egatlab sug'orishda o'rtacha 6305 m³/ga-ni, tomchilatib sug'orishda esa 2993 m³/ga-ni tashkil etdi. Bir tsentner (1 ts) paxta

xomashyosini olish uchun egatlab sug'orishda 176 m³, tomchilatib sug'orishda 66 m³ suv sarflandi.

O'tkazilgan tajribalar va olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, paxta xomashyosini yetishtirishda tomchilatib sug'orish texnologiyasi o'simlikning maqbul suv-havo va ozuqa rejimlarini to'liq ta'minlaydi xamda mehnat va moddiy resurslarini tejash orqali iqtisodiyotining o'sishiga imkon beradi.

Qishloq xo'jaligida xosildorlik asosan agrotexnik va meliorativ tadbirlar darajasi bilan aniqlanadi. U hayotiy omillar, avvalom bor, o'simlikning suv va ozuqa moddalari bilan ta'minlanishiga bog'liq cheklanadi. Xosilning miqdori va sifati dehqonning bu omillarni qanday boshqara olishiga bog'liq.

Tabiiy namlik yetishmaydigan arid zonalarda mo'l hosil yetishtirishda suv asosiy omil hisoblanadi. O'simliklarni suv bilan ta'minlashda, uning o'sib rivojlanishi bosqichlarida qancha va qachon suv berishni, ya'ni maqbul sug'orish rejimini belgilash muhim ahamiyatga ega. Sug'orish ba'zan salbiy oqibatlariga, masalan, tuproq strukturasi buzilishi natijasida uning ko'chishiga, qatqaloq xosil bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ortiqcha sug'orish suvi tuproq eroziyasiga, ozuqa elementlarining chuqur qatlamlarga yuvilib tushishiga va xaydalma qatlamning zichlanishiga sabab bo'ladi.

Sug'orish usulini to'g'ri tanlash, sug'orish me'yorini va agrotexnikani qat'iy rostlash nafaqat bu muammolarni bartaraf qiladi, balki xosildorlikni birnecha barobar oshirishga imkon beradi.

Bugungi kunda eng qo'lay va samarali sug'orish usuli tomchilatib sug'orish hisoblanadi.

Tomchilatib sug'orish qo'yidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi va boshqa sug'orish usullariga nisbatan qator afzalliklarga ega:

- tuproq faol qatlamidagi namlikni o'simlik uchun maqbul bo'lgan chegarada rostlab turish mumkin;
- dalada ekinlarga ishlov berish ishlarining olib borilishidan qat'iy nazar, bir kecha-kunning istalgan vaqtida sug'orishni amalga oshirish mumkin;

- ozuqa moddalari eritma shaklida bevosita o'simlik ildiz tizimi rivojlanadigan qatlamga beriladi.

Tomchilatib sug'orishda o'simlik ildizlari boshqa har qanday usullarga nisbatan yaxshi rivojlanadi sababi namlanish uchog'i yaqinida ildizlar zich joylashadi va o'simlik ildizlarning chuqurlikdagi suvli qatlam tomon o'sishga energiya sarflanmaydi. Bu esa ildiz tizimining ustki unumdor qatlamda har bir o'simlik uchun maqbul bo'lgan chuqurlikda rivojlanishini ta'minlaydi.

O'simliklarning oziqlanishi tomchilatib sug'orishda juda samarali kechadi.

Tuproqning namlangan qismida ildiz tiziminng faol rivojlanganligi sababli ozuqa moddalarining iste'mol qilinishi jadallashadi. Budan tashqari tuproqning ortiqcha namlanmasligi natijasida ular makrobushliklaridagi havo aylanishi yaxshilanadi va butun o'sishi davomida ildizlarning birtekisda nafas olishi ta'minlanadi. yer ustidan sug'orishda tuproq suv bilan to'la to'yinadi va navbatdagi sug'orisholdida uning namligi kamayib quruq xolatga keladi. Bu jarayonning birnecha bor taqrorlanishi o'simlikning bir tekis o'sib rivojlanishiga tusqinlik qiladi. tomchilatib sug'orishda esa kichik me'yorlar bilan tez-tez suv berishlar, o'simlikning vaqt davomida doimiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Tomchilatib sug'orishda agrotexnik tadbirlar doimiy olib borilishi mumkin, sababi egatlar oralig'i doimo quruq va qishloq xo'jalik texnikalari butun dala bo'ylab xarakatlana oladi.

Bu usulda tuproq xarorti yer ustidan sug'orishga nisbatan yuqori bo'ladi, bunday sharoit ekinlarning erta etilib, pishishini ta'minlaydi.

Ozuqa va boshqa kimeviy moddalarning eritma shaklida sug'orish suvi bilan berilishi tomchilatib sug'orishning asosiy afzalliklaridan biri hisoblanadi [12].

O'g'itlarni o'simlik ildiz tizimlari joylashgan tuproq qatlamiga o'z vaqtida xamda kerakli miqdorda berish, ulardan samarali va tejab (50 % gacha) foydalanish bilan birga hosildorlikning oshishini xam ta'minlaydi.

Tomchilatib sug'orishning ekologik tomondan afzalligi shundan iboratki, dalalarni sug'orish tizimiga moslashtirib tekislashga xojat qolmaydi, unumdor qatlaminig qirqib olinishiga va yer usti tuproqlari bir qismining qashshoqlanib qolishiga yo'l qo'yilmaydi. Tog'li, tog'oldi va katta nishablikdagi tabiiy yonbag'ir yerlarni sug'organda tuproq eroziyasi kuzatilmaydi.

Kichik sug'orish me'yorlari bilan sug'orish nafaqat suv zaxirasini tejaydi, balki zararli tuz va moddalarning drenaj oqimi bilan yer osti va usti suv manbalariga qayta tushishiga yo'l qo'ymaydi. Tomchilatib sug'orish tizimini ekspluatatsiya qilishda mehnat kam sarflanadi. Tizimni boshqarish avtomatlashtirilganligi sababli mavsumda 3-4 suvchi 150-200 gektar maydonda sug'orish ishlarini to'liq boshqara olishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda tomchilatib sug'orish tizimining qo'llanilishi, suv manbalari zaxirasini tejash, hosildorlikni oshirish, yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash va tuproqni muxofaza qilish muammolarini yechishda yuqori samara beradi.

1.1 Sug'oriladigan yerlarda suvdan tejamkor foydalanuvchi g'o'za yetishtirish texnologiyasi

Respublikamizda paxta yetishtirishni vatani Andijon viloyati bo'lib qoldi. Bu texnologiyani ijobiy tomonlari : paxta hosildorligi 10 ts/ga ortishi: suv iqtisodi 40 foizgacha tejalishi; erta ekish- erta pishishi ; tuproqqa ishlov beruvchi texnikalarni sarf-xarajatlarini 30-60 foizga kamayishi (O.YAkubjonov 1997). 1997 yilda ekilgan paxta maydoni 216 mingni tashkil etdi va bu maydonlarda paxtani pishishi 20-25 kunga tezlashdi.

Paxta hosildorligini ortishi, oddiy usulga nisbatan quyidagicha izoxlandi:

- bir qatorli tartibda urug' qadalgan xar gektar yerda ko'chat qalinligini gektariga 140-142 ming tupga yetishi;
- tuproq xaroratini ortishi g'o'za rivojlanishini tezlashtiradi;
- tuproqda nam zaxirasini saqlanishi va o'g'it samaradorligini ortishi;

- yogingarchilik yillarida unumdor qatlamda tuproqning qatqalangdan saqlanishi.

Istiqbolli tomchilatib sug'orish usuli (G.Bezborodov, B.Komilov) larning ma'lumotlariga ko'ra qulay, arzon samarali xisoblanadi. Vegetatsiya mobaynida g'o'za oddiy egat orqali sug'orish usulida 5-6 marta sug'orilganda $5673\text{m}^3/\text{ga}$ suv sarflansa, tomchilatib sug'orish usulida 7 marta sug'orilib, mavsumiy sug'orish me'eri $3863\text{m}^3/\text{ga}$ ni tashkil etadi. Natijada gektariga $1810\text{m}^3/\text{ga}$ (31,9%) suv tejashga erishiladi.

1.2 Tomchilatib sug'orishda sug'orish texnika elementlarini aniqlash.

Ma'lumki, egat olib sug'orishda dalaga suvni bir tekis taqsimlash va sug'orishni sifatli olib borishda, sug'orish texnika elementlari katta ahamiyatga ega.

Sug'orish texnika elementlarini aniqlashda, agrotetik tadbirlar hamda tuproqning agrosuvfizik xossalari katta ahamiyatga ega. (SH. Nurmatov 1992: B.F.Qambarov 1994). Akamedik Mirixulov usuli bo'yicha kanalarda suvni tuproqqa singishga uning suv-fizik, texnika xossalari asosiy o'rin tutishni isbotlashdi. (M.S. Kuznetsov 1988: V.YA.Girigor'ev 1988).

Sug'orish texnikasi elementlarini parometrlarini aniqlashda asosiy nazariya N.T.Laktaev (1978) nazariyasi bo'lib, uni keng miqyosda qo'llash uning ayrim xolatlariga o'zgarish kiritish kerak bo'ladi. Faqat bir jadval bilan sug'orish texnikasi elementlarni tavsiya etish tuproq turi har xil bo'lgan joylarda ularni ehtiyojini qondira olmaydi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, sug'orishda egatni bosh qismi ortiqcha namlanishi, etak qismida nam yetishmasligi tuproqda degradatsiya xolatini keskinlashuviga olib keladi. SHuning uchun tuproq turiga qarab sug'orish usuli tanlanganda bu nazariyaga tuzatma kiritish maqsadida muvofiq bo'ladi. A.M.Maod (1980) sug'orish rejimini belgilashda dala uzunligi bo'yicha namlanish nazariyasi tuproq turi, geologik va gidrogeologik xamda iqlim sharoitlariga bog'liq ravishda o'zgartirishni ta'kidladi.

1.3 Tomchilatib sug'orish tizimi va elementlari.

Tomchilatib sug'orish tizimi – sug'orish manbai, so'zgich va nasos, bosimni rostlab beruvchi asbob, magistral va taqsimlagich quvurlar, o'g'itlarni eritib tayyorlab beradigan uskuna (gidropodkormushik) va tomizgichlar o'rnatilgan sug'orish quvurlaridan tashkil topadi. Sug'orish suvi asosan 0,07-0,28 mPa bosim bilan yoki o'z oqimi bilan kam bosimda beriladi. Kam bosim yer usti va manbadagi suv sathi balandliklari orasidagi farq yordamida hosil qilinadi.

Tomchilatib sug'orish tizimi sug'orishga beriladigan suvning loyqalik darajasiga juda sezgir bo'lganligi uchun suvni yaxshilab suzgichdan o'tkazish zarur. Tizimga tushadigan tuproq mayda zarrachalarining yo'l qo'yilgan maksimal o'lchami, tomizgichning suv tushadigan teshik diametri o'lchamidan bir necha marta kichik bo'lishi shart, aks holda mayda zarrachalar bir-biriga yopishib o'tish teshigini bekitib qo'yishi mumkin. Sug'orishga beriladigan suvni tozalash uchun tindirgichlar, separatorlar hamda qum-shag'alli, turli suzgichlar foydalaniladi. Suv o'tkazgich qobiliyati $90 \text{ m}^3/\text{soat.gacha}$ bo'lgan har xil tuzilishdagi suzgichlar ishlab chiqilgan. Diametri 10 mk.dan kichik bo'lgan zarrachalarni ushlab qolish uchun qumli suzgichlardan, diametri 10-100 mk bo'lgan zarrachalar uchun 1 sm^2 da 30-40 ta teshiklar mavjud bo'lgan turli suzgichlar foydalaniladi. Suzgichlarni loyqadan tozalash avtomtli yoki qo'l bilan yuvish orqali amalga oshiriladi. Magistral va taqsimlovchi quvurlar uchun diametri 38-160 mm bo'lgan qora poliyetelen va polivinilxloridli quvurlardan foydalaniladi. Tomizgichlarni quvurlarga maxkam o'rnatish uchun sug'orish quvurlari poliyetilen materiallaridan tyyorlanadi. Quvurning ichki diametri 6-19 mm.ni qalinligi mos ravishda 1-6 mm.ni tashkil qiladi.

Tomizgichlarga qo'yiladigan asosiy talabalardan biri – ekspluatatsiya davri davomida suv sarfining o'zgarmasligi, tomizgich suv sarfining, quvurning qaysi qismida joylashganligiga bog'liq bo'lmasligi, tizimda bosimning o'zgarishiga va atrof-muhit harorati o'zgarishiga bog'liq bo'lmasligi, tizimni to'xtatib qo'ymasdan tozalash mumkinligi va bahosining arzonligi. Hozirgi

kunda quvurga o'rnatilgan yoki qo'yilgan plastmassali tomizgichlar keng foydalanilmoqda. Tomizgichlarni o'rganish – tomchilatib sug'orishning jiddiy muamosidir. Tizimni tozalashga sarflanadigan xarajat, tomchilatib sug'orish tizimining umumiy qiymatining 10 %.gacha bo'lgan miqdorini tashkil qiladi va bundan tashqari sug'orish mavsumi davomida ko'pchilik tomizgichlar muttasil tozalab turilishi zarur, 7-8 yil ishlatilgandan keyin, ularni yangisi bilan almashtirish zarur. Bunday holat tomizgichning yangi turini kashf etish ustida doimiy ish olib borishni, shuningdek kamchiliklardan mustasno bo'lgan tomchilatib sug'orish tizimini ishlab chiqishni talab qiladi [21].

AQSH va Angliya korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan "Vatermantik" tomizgichli quvur ikki qavatli quvurdan (quvur ichida quvur) iborat. Ichki a tashqi quvurlar devorlarida diametri 0,62 mm bo'lgan teshiklar mavjud. Quvur devoridagi teshiklar shunday joylashtirilganki, ular orasidagi masofa ichki devorda tashqi devordagilarda nisbatana 4 yoki 8 marta katta bo'ladi. Ichki quvurning har bir teshigidan suv tashqi quvurning 4-8 ta teshiklariga tushadi, natijada quvurning butun uzunligi bo'ylab bir tekisda sug'orish ta'minlanadi. SHuningdek, tomizgichlarsiz ishlaydigan sug'orish quvurlari xam mavjud. Tomizgichning vazifasini maxsus g'ovakli materiallardan tayyorlangan quvurning devorlari bajaradi. Bunday quvurni tuproq ustiga hamda ichiga 38 sm.gacha bo'lgan chuqurlikga joylashtirish mumkin. Quvurning uzunligi 300 m, bosim 0,02-0,03 mPa bo'lganda suv sarfi 3,8-7,6 l/soat.ni tashkil qiladi [24].

Tomchilatib sug'orish tizimining trakibiga kiradigan so'zgich suvdagi o'lchami 25 mm.gacha bo'lgan zarrachalardan tozalab berishni ta'minlaydi. Bunday quvur 10-20 yil davomida bekilib qolmasdan ishlashi mumkin. Tomchilatib sug'orish tizimida mineral o'g'itlar eritma shaklida sug'orish suvi bilan birga o'siliklar ildiziga beriladi. O'g'itlar eritmasi gidropodkormuik yordamida magistral quvurga o'zatiladi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda g'o'zani sug'orish uchun xorijda ishlab chiqarilgan tomizgichlar o'rnatilgan sug'orish quvurlaridan foydalanilmoqda.

Bunda sug'orishga berilgan suv miqdorini tejash 50 %.gacha hosildorlikning 5-8 ts.gacha oshganligi va egatlab sug'orishga nisbatan ekinlarga ishlov berishdagi mehnat sarfining ancha kamayganligi kuzatilgan [15].

Lekin, bunday tomizgichlarni fermer xo'jaliklarida keng qo'llash qoplash muddati 10 yilgacha bo'lgan katta miqdordagi kapital mablag'ni talab qiladi. SHuning uchun ilmiy izlanishlarning asosiy maqsadi va vazifalari – tuzilishi oddiy, oson tayyorlanadigan va ekspluatatsiya qilinadigan hamda bahosi arzon tomchilatish tizimini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

TIMI olimlari tomonidan (Usmanaliyev B, Azarov I.N, Umurzaqov U.P) o'tkazilgan ilmiy izlanishlar natijasida tuzilishi sodda, yig'ish va qismlarga ajratish oson, mahalliy hom ashyodan tayyorlash imkoni bor yangi past bosimli tomchilatib sug'orish tizimi ishlab chiqildi. Bu tizimning asosiy qismi hisoblangan tomchilatgichli egiluvchan poliyetilen quvur diametri 25 mm bo'lib, labirintli qismi suv sarfi 1-5 l/soat.gacha o'zgaradigan tirqishlar bilan jixozlangan. Tomchilatgichlar orasidagi masofa 20 sm.dan boshlab ekin ko'chatlari oralig'iga bog'liq buyurtma bo'yicha belgilanadi. Tomchilatgichlarning tuzilishi tirqishli bo'lmaganligi sababli tindirgichdan o'tgan sug'orish suvini nozik filtrlab tozalash zarur emas. Tizim 1,0-2,5 m suv ustuniga teng bosim hosil qilinganda ishlaydi va bunday bosimni hosil qilish uchun sug'oriladigan yerdan 1,0-2,5 m yuqoriga joylashtirilgan temir-beton novlardan, metall, g'isht xamda temir-betondan quriladigan xar xil hajmli idishlardan foydalanish mumkin. Iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha past bosimli tomchilatib sug'orish tizimini joriy qilishga sarflanadigan mablag' 1500-2100 ming so'm/ga.ni tashkil qilib, xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilgan tizimlarga nisbatan 6-8 barobar arzon.

Past bosimli tomchilatib sug'orish tizimini g'o'za, bog'-uzumzorlar, sabzavot va poliz ekinlarini sug'orishda qo'llash egatlab sug'orishga nisbatan 45-60 %.gacha suvni, 35-50 %.gacha mineral o'g'itlarni tejashga va hosildorlikning 30-56 %.gacha ko'payishiga imkon beradi [15].

Tomchilatib sug'orish tizimini qurish uchun katta kapital mablag' sarflanadi. SHuning uchun bu usuldan yuqori rentabelli, serhosil qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda, shuningdek sug'orish suvi taqchil bo'lganda va boshqa sug'orish usullarini qo'llash qiyin bo'lgan sharoitlarda, eng avvalo, katta nishablikdagi yerlarni sug'orishda foydalaniladi. Tomchilatib sug'orishda nishabligi katta bo'lgan tog'oldi uchastkalarini, suv bilan yetarlicha ta'minlanmagan tumanlarni, relefi murakkab, tuprog'i yengil va suv eroziyasiga uchragan, shuningdek kichik debitli toza suv manbai mavjud bo'lgan yerlarni sug'orishga ajratish lozim.

Tomchilatib sug'orish tizimi uchun suv manbaini tanlashda sug'orish suvining sifatiga yuqori talablar qo'yilishini e'tiborga olish kerak.

Tomchilatib sug'orish uchun o'simlik ildizi joylashgan qatlam tuprog'ida tuzlarning umumiy miqdori 0,4 % dan natriy xlorning (NaCl) miqdori 0,005 % dan yuqori bo'lmagan yerlarni ajratish kerak. Tomchilatib sug'orish tizimi uchun yerlarni ajratish va sug'orish suvining sifati KMvaK 2.06.03-97 - Talabiga javob berishi kerak.

Tomchilatib sug'orish tizimining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi:

Sug'orish manbai, nasos stantsiyasi, suvni tozalash qurilmasi (suzgich), mineral o'g'itlarni tayyorlab, yetkazib berish qurilmasi, magistral, tarqatuvchi va tomchilatgichli poliyetilen quvurlari (1.2.1-rasm).

atrofida bo'ladi. Quvvati 10% zaxirasi bilan nasos tanlab olish tavsiya qilinadi. Nasosning texnik tavsifnomasidagi bosim ko'rsatkichi, uning suvni ko'tarib chiqarishni hisobga olmagan sharoiti uchun bo'lib, suvni ko'tarishda har 10m-da 1 atm bosim yo'qoladi. Suvni filtrlash (suzgich) qurilmasi uzatish oldidagi bosim 2-3 atm bo'lishi kerak.

Tomchilatib sug'orish tizimining uzoq vaqt samaradorli ishlash filtr qurilmasi konstruktsiyasiga bog'liq. Filtrning asosiy vazifasi sug'orish suvini har xil aralashmalardan tozalab berishdan iborat. Tomchilatib sug'orishda filtrning quyidagi turlari qo'llaniladi: qum-shag'al filtrlar va gidrotsiklonlar, turli va diskli filtrlar.

Jadval 1.3.1 Suv manbaiga bog'liq filtr turini tanlash.

	Suv manbai	Sug'orish suvi tarkibidagi elementlar	Filtr turlari
Er osti suvlari	Quduq	Qum, kaltsiy karbonat	Turli yoki diskli filtrlar
	CHuqur skvajina	Qum, kaltsiy karbonati, temir	Turli filtr va nazorat qum separatori
Er usti suvlari	Daryo	Organik moddalar, suv o'simligi	Qum-shag'alli va nazorat filtrlari
	Kanal	Organik moddalar, suv o'simligi	Qum-shag'alli va nazorat filtrlari
	Suv ombori	-//-	-//-

Suvni tozalash sifati filtrning turiga emas, balki uning parametriga (mesh) bog'liq. Filtr parametri bu 1 dyuyim (1 dyuyim=25 mm) elementidagi teshiklar soniga teng. Ko'pchilik tomchilatgichli quvurlar uchun bu parametr 120 mesh (125 mikron yoki 0,130 mm) dan kam bo'lmasligi kerak. Ochiq turdagi suv

havzalaridan foydalanilganda (daryo, kanal, suv ombori va h.k) qumshag'allifiltrlarni qo'llash kerak. Bu filtrlar suvini organik va neorganik zarrachalardan tozalashga mo'ljallangan bo'lib yopiq idishdan iborat. Filtrlash elementi sifatida fraktsiyalari 1,2-2,4 mm-li qilib maydalangan granitli qumlardan oydalaniladi.

Filtrlash qurilmasiga qurish oldidagi suv bosim 3 atm-dan kam bo'lmasligi tavsiya qilinadi. Filtrni yuvish davri suvning loyqalik darajasiga bog'liq. Suv loyqa bo'lganda filtrni yuvish 1 soat 1 martadan kam bo'lmasligi, toza tiniq suv bo'lganda 1 sutkada 2 martadan kam bo'lmasligi kerak.

Mineral o'g'itlar va himikatlarni tayyorlash va tizimgi uzatish qurilmasi. Bu qurilma har qanday tomchilatib sug'orish tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. eng ko'p qo'llanilayotgan qurilmalar quyidagilar:

- "Venturi" turidagi injektor;
- o'g'itlantiruvchi idish;
- dozatron.

"Venturi" injektorida ikki uchi torayib boruvchi konus shaklidagi quvurdan iborat. U har qanday agressiv muhitga chidamli polimerli materiallardan tayyorlanadi. Suv oqimi injektordan o'tayotganda vakuum hosil qiladi, natijada mineral o'g'itlar eritmasi quvur ichiga so'riladi va sug'orish suvi bilan aralashib, tizimiga oqib kiradi.

O'g'itlantiruvchi idish germetik yopiq bak bo'lib, kirish va chiqish jumraklari bo'ladi. O'g'itlantiruvchi idishga kirish oldidagi jumrak yordamida bosim ozgina kamaytirilganda, idish ichida mineral o'g'itlar eritmasi sug'orish suvi oqimiga aralashib tizimga beriladi.

Dozatron gidravlik proportsional aralashtirgach bo'lib, mineral o'g'itlarning yaxshi va aniq aralashtirilishini ta'minlaydi. dozatron bevosita sug'orish tizimiga yoki o'g'itlantiruvchi idish boshiga o'rnatiladi.

Magistral (bosh) quvur sug'orish suvini nasos stantsiyasidan suv tarqatuvchi quvurlarga yetkazib berish vazifasini bajaradi. Quvur korroziyaga chidamli har xil materiallardan quvur diametri yetkazib beriladigan suv hajmiga,

masofaga, quvur materialining ishqalanishi ko'effitsiyentiga bog'liq hisoblanadi.

Bosimni rostlovchi qurilma tizimida suv bosimni kamaytirish va bosimni berilgan ma'lum bir darajada ushlab turishga xizmat qiladi.

Bu qurilma bevosita tarqatuvchi quvur bosh qismiga o'rnatiladi. Polimer materiallardan tayyorlangan korroziyaga uchramaydigan bosim rostlagichlarni qo'llash zarur. O'lchami 2" klanning suv o'tkazuvchanligi 30 m³/soat, 3" klanniki – 60 m³/soat, 4" klanniki – 90 m³/soat-ni tashkil qiladi. Tizim suv bilan to'liq to'lgandan keyingina bosim rostlagichni sozlash mumkin. Bosim rostlagichni kamida 1 oyda 1 marta yuvib, tozalab turish kerak.

Tarqatuvchi quvur. Tomchilatib sug'orish tizimining bu elementi sug'orish suvini magistsral quvurdan tomchilatgichni quvurga yetkazib berish uchun xizmat qiladi.

Tarqatuvchi quvur korroziyaga chidamli har xil materiallardan tayyorlanadi va uning diametri suv sarfi hajmiga, uzunligiga va unga ulangan tomchilatgichli quvurlar soniga bog'liq aniqlanadi. Maydoni 1 gektardan katta bo'lgan dalalarda tarqatuvchi quvur sifatida egiluvchan PVX quvuri (Leyflet) ni qo'llash tavsiya qilinadi. Bu quvurlar yuqori harorat ta'siridan shkastlanmaydi, ultra-binafsha nurlar ta'siriga chidamli, ekspluatatsiya qilish muddati 5-yildan ko'p, 4 atmosfera bosimiga bardosh beradi va bosimsiz bo'lganda texnika g'ildiraklari bosib o'tishi mumkin. Leyflet quvuri 2,5" (63mm), 3" (75mm), 4" (104mm) diametrlarda chiqariladi va uzunligi 100 m-li o'ramda sotiladi. Leyflet quvurlari sifati, montaj qilishning, foydalanishning, yig'ib olishning va saqlanishning qulayligi sababli boshqa har qanday quvurlardan ustun turadi [22].

Tomchilatgichli quvur tizimning asosiy elementi hisoblanadi. Bunday quvurlarning bir necha turlari mavjud bo'lib, har xil ekin turlarini sug'orishga moslashtirgan. Ko'p yillik o'simliklarni sug'orishda tomchilatgich quvur tavsiya qilinadi. Uning asosiy texnik ko'rsatkichlari quyidagicha:

- suv tushirgich teshiklar orasidagi minimal masofa 50 sm;

- tuproq ostiga joylashtirish yoki tuproq ichida undan foydalanish imkoniyati yo'q;

- ishchi bosim 1-3 atm bo'lishi kerak;

- bahosi qimmat.

Qattiq emitterli tomchilatgichli quvur. Quvur sabzavot ekinlari sug'orishda foydalaniladi va quyidagi xususiyatlarga ega:

- suv tushirgich teshiklar orasidagi minimal masofa 30 sm tashkil qiladi va bu piyoz, sabzi, lavlagi kabi mayda urug'li ekinlarni bir tekisda sug'orishni ta'minlaydi;

- minimal ishchi bosim 0,8 dan 1,0 atm-gacha o'zgaradi;

- quvurining minimal qalinligi 150 mikron;

- tomchilatgich quvurni tuproq ostiga va ichiga joylashtirish imkoniyati yo'q.

Amerika kompaniyasi (T-sistems Intenational) tomonidan ishlab chiqilgan T-Tare deb namlanadigan boshqariladigan emitterli tomchilatgich quvuri ham ko'pchilik o'simliklar, hamda sabzavot ekinlarini sug'orish uchun tavsiya etilgan. Suv tushirgich teshiklar orasidagi masofa 10sm-dan 50sm-gacha o'zgaradi. Bunday tomchilatgichlar 0,3 atm bosimda normal holatda ishlaydi. Suv tushirgich teshiklar konstruksiyasi tirqishli bo'lganligi, bu tomchilatgichni tuproq ostida ham foydalanishga imkon beradi. Suv sarfi - 0,5 l/soat; 0,75 l/soat; 1,0 l/soat; 2 l/soat-ni tashkil qiladi. Bu tomchilatgichli quvur qalinligi juda yupqa (100 mikron)-dan qalin (500 mikron) gacha bo'ladi. Bahosi quvur devorining qalinligiga qarab o'zgaradi.

T-Tare tomchilatgichli quvuri ilg'or texnologiya namunasi bo'lib, har bir tomchi suvdan unumligi foydalanish usuli hisoblanadi [21, 22].

Tomchilatib sug'orish sug'orishni yuqori darajada mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish suvni tejash va tuproqni muhofaza qilish talabalariga javob beradigan sug'orish usullaridan biri hisoblanadi.

Sug'orishning bu usuli mikro suv o'tkazuvchi tomizgichlar orqali kichkina diametrli quvurlar yordamida sug'orish suvini bevisita tuproqning o'simliklar ildizdali joylashgan qatlamiga yetkazib berishga asoslangan.

Tomchilatib sug'orishning tamoyilligi o'simlik talab qiladigan suv va ozuqa moddalari miqdorini har bir o'simlikning ildizlari joylashgan zonasiga berilishidan iborat. Bu esa tuproqlarning maqbul suv-fizik va ozuqaviy rejimini ta'minlashga imkon yaratadi.

Tomchilatib sug'orishining asosiy afzalligi shundan iboratki tuproqning o'simlik ildizlari joylashgan qatlamida maqbul namlik darajasini uzluksiz taminlay olishidir.

I bob buyicha xulosa

1.Egat uzunligi bo'yicha namlikni bir xilda ta'minlash va sug'orish texnikasi foydali ish koyeffitsentini orttirish maqsadida ko'pchilik mualliflar egat tuzilishiga katta e'tibor bergan.

2.Tomchilatib sug'orish texnologiyasini takomillashtirish tavsiya etilgan sug'orish rejimida amalga oshirishga yordam beradi.

3.Erta pishar g'o'za navlarini sug'orish tartiblarini o'rganish masalasi bundan keyin xam o'z dolzarbligini saqlab qoladi, chunki seleksioner olimlarimiz xar yili yuqori sifatli tola chiqadigan, jaxon andozalariga javob beradigan yangi navlarni yaratishmoqda;

4.G'o'zani o'sishi, rivojlanishi va xosildorligini ortirishda uning sug'orish va oziqlantirish tartiblari katta ahamiyatga ega. CHunonchi, namlik tartibini sozlash yo'li bilan g'o'za tupi aloxida a'zolarining o'sishini, xosil to'plash va paxtasining ochilishi jarayonlarini o'zlashtirish mumkin.

5.Turli g'o'za navlarining amal-o'suv davri bosqichlari bo'yicha tuproqdagi sug'orish oldi tartibi CHDNSga nisbatan quyidagi chegaralarda o'zgarib turadi: gullaguncha va gullash-xosil to'plashda 65 foizdan 75 foizgacha va paxta ochilganda 60 foizdan 65 foizgacha.

6. Sho'rlangan, yengil qumloq tuproqlarda bu namlikni yuqoriroq darajada ushlab turilishi zarur.

7. O'zbekistonda g'o'zani sug'orishga oid tajribalar nisbatan ko'p o'tkazilgan, sug'orish tartibi, me'yorlari bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar tuproq-iqlim va maxalliy sharoitlarga ko'ra bir-biridan farqlanadi. SHuning uchun xam bu ko'rsatkichlar tuproq-iqlim sharoitlari, zaxob chuqurligi, sho'rlanganligi, yerlarning o'zlashtirilgan muddatlariga bog'liq xolda aniqlab chiqilishi zarur;

8. Ilmiy adabiyotlarda erta pishar ekilgan g'o'zani yangi istiqbolli "Farg'ona-5", "Zafar-3", "Andijon-35", "Buxoro-6" navlvrining sug'orish va oziqlantirish tartiblari Farg'ona vodiysi tog' oldi mintaqalarida o'rganilganligi to'g'risida ma'lumotlar kam o'rganilgan.

9. G'o'za gullaguncha uni ekish oldi zaxira suvi bilan o'z vaqtida sug'orish zarur; gullash-xosil to'plash bosqichga o'tishi bilan g'o'zaning suvga bo'lgan talabi keskin oshadi. Gullashgacha tuproq va taranspiratsiyaga sarflanadigan jamlangan suv miqdori amal-o'suv davridagi umumiy suv sarfining 25-30 foizini, gullash-xosil to'plashda 55-65 va paxta ochilishda 15-20 foizni tashkil etadi.

10. Muayyan tuproq-iqlim mintaqasi sharoitini, o'simlik biologiyasini xisobga olib, suv-ozuqa tartiblariga amal qilingan xolda o'tkazilgan sug'orish uning o'sishi, rivojlanishi, xosil to'plashi, yer usti va osti qismlari rivojlanishi mutanosibligini ta'minlaydi, yuqori paxta xosili sifatli tola olish uchun zamin yaratadi.

11. Sug'orishning tejamkor texnologiyalarini ishlab chiqishga ko'plab tadqiqodlar e'tibor bermoqda, lekin sho'rlangan, o'tloq tuproqli yerlarda sug'orishning tejamkor texnologiyalariga kam e'tibor bermoqda.

bu kursatkich yukorida takitlab utilgan talabga javob beradi.

2 bob Tadqiqot ob'ektining tabiiy, tuproq-meliorativ sharoitlari

2.1 Tadqiqot o'tkazilgan joyning geografik urni va relefi

Tadqiqot ishlari Andijon viloyati, Izboskan tumanidagi “Gulshan axtachi” fermer xo'jaligi xududida olib borildi.

“Gulshan axtachi” fermer xo'jaligi kengashi yer ust-geomorfologik jihatdan tekislikdan tuzilgan bo'lib, 3-50 ga qadarli Janubga va G'arbga sal qiyalik shaklida tuzilgan ayrim joylarda qiya tekislik janubga 6-7⁰ ni tashkil etadi.

Umumiy tuzilishda tekislik ayrim joylarda to'lqin shaklida tuzilishga xam egadir. Tabiiy xolatda yer usti Janubga-Qoradaryo tomnga va g'arbga ochilish moylligini ko'rib turadi.

Ayrim joylarda yer ustida qiya egilgan ya'ni atrofdan o'rtacha qarab pasayishi qiyalik xolatida xam ko'zga tashlanadi. tabiiy ko'rinishda esa yer usti ikki qismga bo'linadi.

1-terassa shaklidagi tekislik va 2 to'liq shakldagi tekislik nishablikdagi qiya tekislik sharqdan g'arbga qarab cho'zilib turadi.

Yog'in miqdori 2006 yilda vegetatsiya davrida- 46,6 mm, 2006 y. 106,8 mm, 2007 y – 75,4 mm ni, o'rtacha 3-yilda – 76,4 mm, aprel oyida bu yillarda 22,2; 45,5; 36,6 mm ni tashkil etdi va chigitni sug'orishsiz unib chiqishida katta axamiyat kasb etdi.

2.3 Tuproq-meliorativ, yerning litologik tuzilishi va gidrogeologik sharoitlari

